



**JIZZAX VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI**

**JIZZAX VILOYATIDA
XIZMATLAR SOHASINING
RIVOJLANISHI**

2022- YILNING YANVAR OYLARIDA



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

Zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari orasida xizmatlar sohasi ustunlik qiladi.

Ilg'or mamlakatlarning zamonaviy rivojlanish darajasi turli xil xizmatlar ishlab chiqish va ularning bozorini jadal rivojlanishini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish darajasi jamiyat shakllanishining asosiy mezonidir.

XIZMATLAR

Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi
- **530,1**
mlrd. so'm

Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi –
61,0 %

Ko'rsatilgan bozor
xizmatlarining o'sish
sur'atlari –
111,5 %



2022- yil
YANVAR

SOHASI

Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi –
371,5 ming so'm

Xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar
ulushi –
57,4 %

Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan xizmatlarning
o'sish sur'atlari –
109,1 %

1

Jizzax viloyatida xizmatlar sohasini rivojlantirish




Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **530,1** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **84,9** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda 2021- yilning yanvar oylariga nisbatan o'sish sur'ati **111,5 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari





JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	530,1	111,5
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	27,1	119,3
Moliyaviy xizmatlar	139,7	113,5
Transport xizmatlari	77,5	111,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	76,3	111,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	14,5	107,7
Savdo xizmatlari	166,9	110,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	12,0	105,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	18,1	154,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	10,2	109,7
Ijara xizmatlari	11,3	74,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	13,6	105,1
Shaxsiy xizmatlar	15,8	108,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	7,3	103,8
Boshqa xizmatlar	16,1	118,2

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2022- yil yanvar oylarida bu xizmatlarning ulushi **31,5 %** ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy (**26,4%**), transport xizmatlari (**14,6 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**5,1 %**), shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlar bo'yicha (**3,4 %**) qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da (2022- yil yanvar oylarida)




Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,4 %** ga yetdi.



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmning **30,8 %** ini tashkil etgan. 2021- yilning shu davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,5 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi.

Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.


2022- yil yanvar oylarida yuqori o'sish ta'lim xizmatlarida (**54,0 %**), aloqa va axborotlashtirish sohasidagi xizmatlarda (**19,3 %**), boshqa (**18,2 %**), moliya (**13,5 %**), transport xizmatlarda (**11,6%**), savdo xizmatlari (**10,3 %**), sog'liqni saqlash xizmatlar (**9,7 %**) hamda shaxsiy xizmatlarida (**8,6 %**) qayd etildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining keskin pasayish kuzatilgan ijara xizmatlarda (**25,1 %**) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar





Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri kelmoqda. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da

2021- y. yanvar

2022- y. yanvar



Yo'lovchi tashish

Yuk tashish

2022- yilning yanvar oylarida avtomobil transportida yuk tashish xizmatlarining ulushi **59,3 %** ga yetdi.


Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar oylarida yuk tashish xizmatlarining ulushi **57,9 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

2022- yilning yanvar oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **76,3** mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2021- yilning yanvar oylariga nisbatan ushbu xizmatlar hajmi **11,8** % ga oshdi.

Umumiy avtomobil transporti xizmatlari hajmida hududlarning ulushi, % da






JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

2022- yilning yanvar oylarida avtotransport xizmatlarining yuqori o'sishiga Jizzax sh. (**19,8 %**), Sh. Rashidov (**17,3 %**), Do'stlik (**10,5 %**), Paxtakor (**9,3 %**), Mirzacho'l (**9,2 %**) va Zafarobod (**8,9 %**) tumanlarida erishildi. Ushbu sohadagi xizmatlar hajmining biroz o'sish sur'ati Baxmal tumanida (**103,7 %**) qayd etildi.

Avtomobil transporti xizmatlarining o'sish sur'ati, % da (2022- yil yanvar oylarida)






Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini iste'molchiga yetkazib berishdek zarur vazifani bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yilning yanvar oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **31,5 %** ni tashkil etib, bu **166,9** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar oylarida ularning hajmi **137,2** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **30,8 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari





JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

2022- yil yanvar oylarida savdo xizmatlarining eng katta hajmi Jizzax shahrida qayd etilgan – **39 830,3** mln. so'm.

Shu bilan birga, hududlar orasida G'allaorol (**22 575,7** mlrd. so'm), Zomin (**19 436,3** mln. so'm), Sharof Rashidov (**16 756,3** mln. so'm), Baxmal (**15 290,4** mln. so'm), Forish (**11 257,1** mln. so'm) va Zarbdor (**8 470,5** mln. so'm) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Hududlar kesimida savdo xizmatlarining hajmi, mln. so'mda (2022- yil yanvar oylarida)



■ Hajm, mln. so'm ■ O'sish sur'ati, % da



Dastlabki ma'lumotlar


2022- yil yanvar

2022- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismini, aniqrog'i, **79,8 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **14,1 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajmni avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi (**6,1 %**) tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi, % da

(2022- yil yanvar oylarida)



Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar oylarida chakana savdo ulushi **79,4 %** ga yetdi

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar




Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2022- yil yanvar oylarida)

2022- yil yanvar oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **139,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar oylarida ularning hajmi **122,6** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2022- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **26,4** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021-yilning yanvar oylarida ularning ulushi **27,5** % ni tashkil etgan.

2022- yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **17,1** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2022- yilning yanvar oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **13,5** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar oylarida ularning o'sish sur'ati **129,3** % ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **96,1%** ni tashkil etdi.


2022- yilning yanvar oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **2,8 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **1,1 %** ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2022- yil yanvar oylarida)

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar

Yordamchi moliyaviy faoliyat



Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **96,3 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **2,3 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **1,4 %**.


Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi

Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2022- yilning yanvar-oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **18,1** mlrd. so'mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **3,4** % ini tashkil etdi. 2021- yilning yanvar oylariga nisbatan o'sish sur'ati **154,0** % ni tashkil etdi.




JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

2022- yilning yanvar oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng yuqori hajmi Jizzax shahrida (**13 978,7** mln. so'm) shuningdek, Sharof Rashidov (**754,6** mln. so'm), Zomin (**637,7** mln. so'm), G'allaorol (**491,8** mln. so'm), Do'stlik (**385,8** mln. so'm), Zarbdor (**361,5** mln. so'm) va Baxmal (**342,3** mln. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi, mln. so'm (2022- yil yanvar oylarida)



Taqqoslash
uchun: 2021- yilning yanvar oylarida Jizzax shahri bo'yicha ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **12 323,6** mln. so'mga teng bo'lgan.



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

2022- yilning yanvar oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarda yuqori o'sish Jizzax shahrida (**79,3 %**), Zarbdor (**9,0 %**), Sharof Rashidov (**7,9%**), G'allaorol (**6,8%**) va Paxtakor (**6,6 %**) tumanlarida kuzatildi.

Mazkur xizmat turidagi o'sish sur'atlarining keskin pasayish kuzatilgan Do'stlik (**13,8%**) tumanlarida qayd etildi.

Hududlar kesimida ta'lim xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y.
yanvar

2022- y.
yanvar



Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm

Xizmatlar jami hajmidagi ulushi, % da

O'sish sur'ati, % da




JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da



2022- yilning yanvar oylarida sog'liqni saqlash sohasida xizmatlarning yuqori o'sishi Sharof Rashidov tumanida **109,6 %** ni tashkil etdi. Nisbatan keskin pasayish kuzatilgan Yangiobod tumanida kuzatildi – **17,0 %**.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar





Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

2022- yil yanvar oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **2,8** mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da

2021- y.
yanvar

Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar

2022- y.
yanvar



2022- yil yanvar oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **90,4%** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **90,7 %** ni tashkil etgan.



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2022- y.	2021- y.
Jizzax viloyati	530,1	111,5	108,5
Jizzax shahri	221,0	116,5	115,0
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	12,1	100,8	84,3
Baxmal	31,6	110,0	100,4
G'allaorol	42,5	108,2	102,2
Sharof Rashidov	63,0	111,6	105,7
Do'stlik	19,0	107,3	102,6
Zomin	45,2	106,8	104,0
Zarbdor	20,9	104,7	98,2
Zafarobod	11,9	105,7	97,4
Mirzacho'l	15,2	106,7	102,2
Paxtakor	19,2	107,1	98,9
Forish	21,6	107,8	99,8
Yangiobod	6,9	117,3	97,3

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar




Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da

(2022- yil yanvar oylarida)

2022- yil yanvar oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Jizzax shahrida – **41,7 %** (2021- yilning yanvar oylarida – **54,5 %**).



Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Yangiobod tumanida – **1,3 %** (2021- yilning yanvar oylarida – **0,8 %**) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligi, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligi va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning o'sishi

**371,5
ming so'm**

**52,6
ming so'mga**



109,1 %

O'sish sur'ati

2022- yilning yanvar oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **371,5** ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar oylariga nisbatan o'sish sur'ati **109,1%** ni tashkil etdi.


Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **318,9** ming so'mni tashkil etgan.

2021- yilning yanvar oylariga nisbatan o'sish sur'ati **106,3 %** da qayd etilgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

Aholi jon boshiga xizmatlar ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichlari



Aholi jon boshiga ko'rsatiladigan bozor xizmatlari hajmining o'sishi har oyda kuzatilmoqda. 2022- yilning yanvar oylari uchun ushbu ko'rsatkich hududlar bo'yicha Jizzax shahrida **1 209,0** ming so'mdan Baxmal tumanida **195,9** ming so'mgachani tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2022- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

**13 226
birlik**

2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

110,0 %

2021- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

**1 205
birlikka
o'sgan**

Ularning umumiy sonidagi ulushi


57,4 %

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **57,4%**, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **17,6 %**, sanoat ulushi **16,1%** ni tashkil etdi. Qurilish sohasining ulushi esa **8,9 %** ga to'g'ri keldi.

2022- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **57,0%** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **16,9 %** ni, sanoat **16,5 %** ni, qurilish **9,6 %** ni tashkil etgan.



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar

2022- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**43,2 %**).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **10,7 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **4,6 %** ga yetdi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **2,5 %** ni tashkil etdi. Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **2,0 %** ga teng bo'ldi.

Savdo – 43,2

Boshqa turdagi
xizmatlar – 37,0

Yashash va ovqatlanish
– 10,7

Tashish va saqlash – 4,6

Sog'liqni saqlash – 2,5

Axborot va aloqa – 2,0


Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.


Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2022- yilning yanvar oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **61,0 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2022- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi **75,9 %** ga to'g'ri keldi.



Xizmatlar sohasi statistikasi bulimi
Tel.: 72-221-51-27